HOZIQNING OTASI KIM BO‘LGAN? (HOZIQNING “VOQEOTI ISLOMIYA” RISOLASINING №12270 INVENTAR RAQAMLI QO‘LYOZMA NUSXASI ASOSIDA)

Fazliyeva Mohigul Xayriddinovna
mohigulfazlieva@gmail.com
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va tojik adabiyotida o‘zining haqqoniy achchiq she’riyati bilan nom qoldirgan shoir Hoziq ijodida sezilarli izini qoldirgan padari buzrugvori - Islomshayx hayotiga oid yangi ma’lumotlar topildi va tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Islomshayx, Hoziq, “Hazrati eshon”, “Voqeoti Islomiya”, Buxoro, Xorazm, Ho‘qand, karomat, xalifa Atoulloh, xalifa Ne’matulloh

WHO WAS HOZIQ’S FATHER? (BASED ON THE MANUSCRIPT COPY OF HOZIQ’S TREATISE “VOQEOTI ISLOMIYA,” INVENTORY NUMBER 12270)

Fazliyeva Mohigul Xayriddinovna
mohigulfazlieva@gmail.com
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Abstract: This article identifies and analyzes new information concerning the life of Islomshayx, the father of the poet Hoziq, who left a significant mark on the poet’s creative work. Hoziq is a poet who made a notable contribution to Uzbek and Tajik literature through his truthful and poignant poetry. The newly discovered information provides additional insights into the life and influence of Islomshayx and his role in Hoziq’s intellectual and creative development.

Keywords: Islomshayx, Hoziq, “Hazrati Eshon”,“Voqeoti Islomiya”,Bukhara, Khorezm, Kokand, karamat, Khalifa Atoulloh, Khalifa Ne’matulloh

Tarix sahifalarida nomi ulug‘lanmagan bo‘lsa-da, o‘zining insoniyligi, bilimi, ma’rifat yog‘dusi bilan butun bir davrni yoritgan zotlar oz emas. Shunday siymolardan biri - XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan, o‘tkir tili va shijoatli yuragi bilan o‘z nomini muhrlagan shoir, olim va tabib Junaydulloh Hoziqdir. Hoziqning shoir va tabib sifatida yetilib kelishi va shuhrat qozonishida, albatta, otasining o‘rni beqiyos. Biz ushbu maqolamizda Junaydullohning otasi kim bo‘lganligi xususida so‘z yuritamiz. Chunki uning otasi kim bo‘lganligini to‘liqroq tasavvur qilsak, shoir shaxsi va dunyoqarashi qanday bo‘lganligini ham yorqinroq ko‘rgan bo‘lardik.

(cc) BY

Hoziqning otasi Islomshayx (ba’zi manbalarda Shayxulislom) Hiraviy XIX asrda Hirotda tug‘ilgan, Karruxiy taxallusida ijod ham etgan. Ammo uning ota-bobolari asli Xorazmlik o‘zbeklardan bo‘lishgan. Olim S.Rafiddinovning keltirishicha, Hoziq otasining ustozi buyuk so‘fi G‘oyibnazar Miyonkoliy bo‘lib, ular Islomshayxga 1756-yilda tariqat ijozatini rasman beradi va uni ancha vaqtdan beri kutayotganini aytib, hirqa va silsila masnadini topshiradi [2]. Shu o‘rinda, Hoziqning otasi va avlodlari haqida yozgan manoqib asari - Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida “Manoqibi shayxulislomi Hirot” nomi ostida asosiy fondda saqlanayotgan 12240-inventar raqamli qo‘lyozmaga diqqatimizni qaratamiz.

Avvalo, ushbu risolaning fondda saqlanayotgan bir necha nusxasi bo‘lib, asosiy fonddan tashqari, Hamid Sulaymon fondida ham 3021-inventar nusxa ostida saqlanayotgan qo‘lyozmasi yuqorida qayd etilgan 12240-raqamli nusxadan ba’zi o‘rinlari bilan farq qiladi, ya’ni qo‘shimca to‘ldirishlar mavjud. Shuningdek, ushbu nusxaning yana bir variantini xo‘jandlik taniqli navoiyshunos olim E.Shodiyev aniqlagan. Olim o‘zining maqolalarida Hoziqning yagona nusxadagi kulliyotini hamda “Voqeoti Islomiya” risolasining nusxasini topgani, qo‘lyozmaning tarkibiy qismi haqida to‘xtalib o‘tadi va bu kulliyot o‘zining shaxsiy kutubxonasida saqlanayotganligini qayd etadi[1][3].

Asosiy fondga tegishli 12240- inventar raqamli qo‘lyozmaning tashqi tavsifiga o‘tsak, muqovasi juda oddiy, jigarrangli karton qog‘ozdan iborat. Ko‘rinishidan toshbosmaga o‘xshaydi (shu holatda qayta ishlangan ko‘rinadi). “Basmala” so‘zlari yozilgan unvon bor, ammo naqshli emas, balki turli shakldagi nuqtalardan iborat. Kitob kichik hajmli 30 varoqdan iborat bo‘lib, 15/24 sm, jumlalar 15 yo‘lda yozilgan. Nasta’liq yozuvida, forsiyda bitilgan bo‘lib, kitob kallofonida qayd etilishicha hijriy 1301 (milodiy 1883-84-yy.)da ko‘chirilgan. Kitobning hoshiya, poygir va ichki unvonlari mavjud, ammo javdali yo‘q. Oxirida kollofon berilgan bo‘lib, quyidagi jumlalar bitilgan:



Mazmuni: “Men bu uyning devoriga yozdimki, Bechora mendan biror iz qolmasin. Agar: «Bu bechora qayerga ketdi?» desalar, ayting: «Zamonning qo‘lidan qochib ketdi”. Kitob podshoh va vahhob Zot - Allohning yordami bilan tamom bo‘ldi. 1301 [hijriy] yil. Hirot shayxulislomining holi/munoqibi”[5;30-b].

[1] Biz shu qo‘lyozmani topish uchun xo‘jandlik olimlar bilan bo‘langanimizda ma’lum bo‘ldiki, ustoz vafotlaridan so‘ng, sharoit taqozosi bilan o‘g‘illari kutubxonalaridagi jami qo‘lyozmalarni sotgan ekanlar. Hoziq kulliyoti aynan kimning qo‘liga tekkanligini bilish uchun shuncha qilgan izlanishlamiz ham foyda bermadi, bizga noma’lum bo‘lib qoldi.

(cc) BY

Yuqoridagi kollofon parchasidan ko‘rinadiki, Hoziq nafaqat o‘z she’rlarida, hatto otasi haqida yozgan risola so‘ngida ham zamonning zolimligidan shikoyat qiladi, undan ko‘ngli qolganligi va qochib ketmoqchiligi, o‘zidan iz qolishini xohlamasligini aytib nola chekadi. Asar an’anaviy Allohga hamd bilan boshlanadi va asarni nima sababdan yozgani, kimga bag‘ishlagani va nomini qanday atagani haqida to‘xtaladi.



Tarjimasi: “Ya’ni, Shayxulislom(Alloh uning muqaddas ruhini poklasin), bu faqir, imkoniyati va qobiliyati oz bo‘lgan Junaydulloh, u zot bilan tug‘ilish(nasab) jihatdan qarindoshlik aloqasiga egaman va Farg‘ona viloyatida…”,deb davomida quyidagi gaplar keladi: “Xo‘qand saltanatida, ulug‘ amir va hukmdor - Amir Said Muhammad Ali Bahodirxon davrida, ul zotning adolat va ehsoni soyasida, olimlar va fazl egalari xizmatida bo‘lib, ezgulik va xizmat bilan mashg‘ulman. So‘rov va iltimos qilindiki, Hazrati Eshonning(bundan keyin barcha o‘rinda otasini shunday nomlaydi) manoqib va fazilatlari haqida bir risola yozilsa, toki bu mahrumlik burchagida g‘amgin qolganlarning dillari taskin topsin va hijron vodiysida chanqaganlarga tasalli bo‘lsin….shuning uchun u zotning holatlari, fe’l-atvori, odatga xilof karomatlari haqida ko‘rilgan va eshitgan narsalar, shuningdek, nozik hikmatli so‘zlar hamda tavhid va irfon ahli maqomlari va kashfiyotlari haqidagi turli tillardan eshitilgan ma’rifatlar imkon qadar tekshirib va batafsil yozib borildi” [5;2-b].

Asardan olingan ushbu parchadan ko‘rinadiki, Hoziq otasi haqidagi barcha ma’lumotlar va ularning karomatlarini yoki shaxsan ko‘rib guvohi bo‘lgan, yoki eshitganlarini tekshirib ko‘rib, so‘ngra yozgan. Bundan tashqari, so‘rov va iltimos qilindi, deyilishiga qaraganda, shu asarning yozilishiga Qo‘qon xoni yoki mansabdorlari tomonidan taklif kiritilgan bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, risolaning ikkinchi nomlanishi haqida shoir shunday deydi:

“Bu risola u Zotga nisbat berilgani va unda muborak lafzlar hamda boqiylik nurlari ko‘ringani sababli, unga “Voqeoti Islomiy” nomi berildi”[5;2-b,3-a].

Olim E. Shodiyev o‘z maqolasida ta’kidlashicha, Hoziq kulliyotida shoirning bobosi asli Xorazm o‘zbeklaridan ekanligi, u Xorazmdan Maymana viloyatiga qarashli Hirak (Hirot bo‘lsa kerak - E.Sh.) degan joyga ko‘chib kelgani va 50 yoshida shu yerda vafot etgani qayd qilanadi. Shoirning otasi Islomshayx shu yerda tug‘iladi[3].

“Voqeoti Islomiya”da (№12240) ham Hoziq shunday deydi:

“Naql qilinishicha, qutb ul-’orifin va g‘avs us-solikin hazratlarining nasabi o‘zbek bo‘lib, Hirotga qarashli Maymana viloyatida tug‘ilgan ekanlar. Ammo u zotning ko‘proq istiqomat qilgan joylari Buxoro shahri bo‘lgan. Muhammad Rahimxon

(cc) BY

hukmronligi davrida sipohiy xizmatida bo‘lib, yuzboshi mansabini ham egallagan ekanlar”[5;3-a].

Ushbu parchadan ko‘rinadiki, Islomshayx Hirotda dunyoga kelgan bo‘lsalar-da, ko‘plab boshqa shahar va davlatlarda istiqomat qilganlar. Eng ko‘p yashagan shaharlari Buxoro va Mashhad deb ko‘rsatiladi.

Bundan xulosa qilinadiki, deyarli barcha olimlarimiz ta’kidlaganlaridek, Hoziq Hirotning Karrax qishlog‘ida tug‘ilgani noma’lum, chunki aynan shu joyda uning otasi Islomshayx tug‘ilib, shu yerda vafot etganligi sababli, balki Hoziqning ham tug‘ilishi manzilini shu joy bilan bog‘lashadi. Islomshayxning 15 yil Mashhadda, 12 yildan ortiqroq Buxoroda yashagani hisobga olinsa, Hoziqning tug‘ilgan joyi Hirot bo‘lmasa kerak, degan fikr tug‘iladi. Haqiqatdan ham Hoziqning yoshlik yillari Hirotda emas, balki Buxoroda o‘tgan bo‘lishi mumkin [3].

Islomshayx ilk botiniy (tasavvufiy) ta’limini Buxoroda, Devonayi Kallaxo‘r laqabli shayxdan oladi. Bir muddat shu inson xizmatida bo‘lib, suhbatida oladi va bora-bora uning ta’siri botinigacha yo‘l topadi. Vaqt o‘tib, dunyoviy xohishlardan butunlay ko‘ngil uzib, shayxning ilohiy ta’limi butun borlig‘ini qamrab oladi, buning natijasida xayolini Allohdan boshqa nasralarning o‘yidan uzib qo‘yadi. Shu tariqa Islomshayx Buxoroning dasht-u tog‘larida 12 yil yashab umrini o‘tkazadi.

Shuningdek, Hoziqning ma’lumotiga ko‘ra, otasi Islomshayx bir muddat Samarqandda ham yashagan va ta’lim olgan:



Mazmuni: “Hazrat yoshlik davrlarida Samarqand atrofidagi Dehbid qishlog‘ida yashagan zamonasining mashhur shayxlaridan Musoxon (rahmatullohi alayhi) huzurlarida bo‘lgan va ularga muridlik qilgan edilar”[5;16-b].

Olim Shodiyevning ta’kidlashicha, Nodirshoh Turkiston viloyatini egallab, o‘zi bilan bir qancha asirlarni Mashhadga olib ketadi. Islomshayx ham Nodirshoh bilan birga Mashhadga ketib, u yerda 15 yil istiqomat qiladi. Keyinchalik u Muhammad Rahimxon Buxoriy bilan Buxoroga keladi. Muhammad Rahimxon Abulfayzxonni o‘ldirib taxtga chiqqach, uning sharofati bilan Islomshayx avval yasovulboshi, keyinchalik yuzboshi lavozimlarida ishlaydi va Buxoroda 12 yildan oshiqroq hayot kechiradi[3].

Aynan shu ma’lumot Hamid Sulaymon fondidagi 3021-raqamli qo‘lyozmada shunday qayd qilinadi: “Muhammad Rahimxon Buxoriy esa Mang‘it jamoasining kadxudosi bo‘lib, Nodirshoh huzurida taqarrubga ega va yasovul edi. U ahli sunna-val-jamoa mazhabida bo‘lgan. Uni sardor qilib tayinladilar. Shundan so‘ng, shia mazhabiga mansub viloyatlardan chiqib kelganlarning har biri o‘ziga ma’lum bo‘lgan

(cc) BY

vataniga qaytib ketdilar. Janoblari (otasi Islomshayx) esa o‘z vatanlariga qaytmadilar, balki Muhammad Rahimxon bilan birga Buxoroga keldilar”[6;10-b].

Ammo “Voqeoti Islomiya”ning 12240-raqamli nusxasida bunday ma’lumotlar yo‘q. Agar bu qo‘lyozmaning 60 bet(30 varoq)lik hajmiga diqqat qaratsak, ba’zi o‘rinlari qisqartirib keltirilgan bo‘lishi mumkin. Chunki, olim Shodiyev aytgan Hoziq kullliyotidagi “Voqeoti Islomiya” ning hajmi 100 sahifa (50 varoq) deb e’tirof etiladi[4]. Hamid Sulaymon fondidagi 3021-raqamli qo‘lyozma hajmi esa 80 bet (40 varoq)dan iborat[6]. Demak, hozircha xulosa qilish mumkinki, risolaning to‘liqroq variant olim Ergashev ta’kidlagan nusxasi hisoblanadi.

Keyinchalik Amir Shohmurodxon (1785-1800-yy) Buxoro taxtini egallaydi. Bu vaqtlarda Hoziqning otasi ilm va hidoyatning eng yuqori cho‘qqilarini egallagan edi. Ahvol shu darajaga yetadiki, Shohmurodxon odamlarning mushohadasidan chuqur qo‘rquv va talvasaga tushadi: “Agar bu zotlar hukumat va saltanat da’vo qilsalar, ularga qarshi turib bo‘lmaydi”, deb yuragida g‘ulg‘ula bilan o‘ylay boshlaydi. Kunlarning birida odatdagidek olim va fozillar yig‘iladigan majlisda amir Shohmurodxon Islomshayxni oddiy bir insonligi va u kelgach hech kim hurmat ko‘rsatib joyidan turmasligini ta’kidlaydi. Ammo majlis boshlanib, shayx kirib kelganda, Shohmurodxonning o‘zi birinchilardan bo‘lib turib, uni qarshi oladi va hammani hayratda qoldiradi: “Hazrati eshon majlisga kirib kelganlarida, Shohmurodbek beixtiyor o‘rnidan turdi va ularni hurmat bilan yuqori joyga o‘tqazdi”[5;5-a].

Yuqorida qanday hol bo‘lganligini his qilgan shayx Shohmurodbekka shunday deydi: “Agar darvishlarning jam’ bo‘lishidan saltanat va hukumatga biror xavf va bezovtalik yetadi, deb o‘ylayotgan bo‘lsangiz, yoki bundan biror foyda va zarar chiqadi, deb gumon qilsangiz, ko‘nglingiz xotirjam bo‘lsin. Biz darveshlarmiz, bizda joh (mansab) va hukumatga hech qanday orzu yo‘q…”[5;5-a].

Shu tariqa, Islomshayx Shohmurodxonning o‘z niyatidan qaytib, qanchalik ehtirom ko‘rsatishiga qaramay, undan ko‘ngli qoladi va Buxorodan chiqib ketadi. Bir muddat turli viloyatlarda bo‘lib, Hirotga qarashli hududlarda xalqni hidoyat yo‘liga boshlash bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Shu zamonda Temurshoh Durroniy (1748-1793y) ning tasarrufida Hindiston va Xurosonning katta qismi bor edi. U Islomshayxning shaxsi, karomatlari va g‘ayrioddiy holatlaridan xabar topib, ularni uzoqdan ehtirom etib, hurmat qilar edi. Kunlardan bir kun vazirini chaqirib unga shayxga murid bo‘lmoqchi ekanligini aytadi, ammo vazir shayxning bilimi va karomatini yaxshilab tekshirib ko‘rish kerakligini ta’kidlaydi. Fayzixon va bir necha shayxlar sinovidan o‘tib, hammani hayratga solgan Islomshayxni yanada yuqori ehtiromga sazovor etib, ham Temurshoh va ham vaziri unga murid tutinishadi. O‘sha zamonning yirik olimlaridan biri bo‘lmish Qozi Zakiy (bu XX asrda yashagan yo‘lboshchi va sharqshunos Ahmad Zakiy Validiy emas; sharh

(cc) BY

bizniki) ham unga murid bo‘lib kiradi. “Hatto Fayzixon va yana bir mashhur shayx ham keyinchalik Temurshoh bilan birga hazratning huzuriga kelib, ularga ergashdilar va o‘zlari ham murid bo‘ldilar. Shuningdek, Qozi Zakiy nomli kishi ham ularga ergashdi. U o‘sha davrning eng yirik ulamolari va mavlaviylaridan biri hisoblanardi”[5;6-a].

Ko‘p o‘tmay, Temurshoh shayxni o‘zi bilan Qobulga olib ketadi. Islomshayx ko‘p yillar Qobulda yashaydi. Keyinchalik hatto Qojarlar sulolasidan bo‘lgan Eron shahzodasi Abbos Mirzo huzurida ham bo‘lib, shoh uning suhbatidan bahramand bo‘ladi va unga yuksak ehtirom va ixlos qo‘yib, muridiga aylanadi[5;6-a].

So‘ngra Abbos Mirzo shayxga Hirotga qarashli Karrax qishlog‘ini mulk qilib beradi. Islomshayx 50 yil davomida shu qishloqda yashab, 83 yoshlarida shahid bo‘ladilar[5;6-b].

Xuddi shu o‘rinda ma’lumotlarda xilma-xillik vujudga keladi. Chunki olim E.Shodiyev maqolalarida shunday deydi: “Islomshayx bir necha yil Qobulda yashab, hayotining so‘nggi yillarini o‘zi tug‘ilgan joy - Hirotning Karrax mavzesida o‘tkazadi va 84 yoshida shu yerda vafot etadi. Islomshayxning jasadi o‘zi yashagan boqqa dafn etiladi”[3].

Olimning ta’kidlashicha, Islomshayx Karx qishlog‘ida umrini so‘ngini o‘tkazib, 84 yoshida vafot etadi. Yuqoridagi 12240 raqamli qo‘lyozmada esa Karrax qishlog‘ida 50 yil yashab, so‘ng o‘sha yerda 83 yoshida vafot etgan. Agar yuqoridagi Hoziq otasi haqidagi barcha ma’lumotlarga qarab xulosa qiladigan bo‘lsak, Hirotda tug‘ilib, so‘ng umrini katta qismini o‘ndan ortiq shaharlarda yillab istiqomat qilgan shayx yana Karraxga kelib, 50 yil yashashi mantiqqa ham, dalillarga ham to‘g‘ri kelmaydi. Shunga ko‘ra, “Voqeoti Islomiya”ning 12240 raqamli nusxasida xatolik ketgan bo‘lishi ehtimoli yuqori.

Hoziq otasining shaxsiyati, qanday inson bo‘lganligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, shunday ma’lumotlarni uchratamiz:

Naql qilinishicha, Hazrati eshon dunyoviy mol-mulk va vositalarga, shuningdek, lashkar salohiyatiga - qilich, kamon va shunga o‘xshash qurollardan foydalanish qobiliyati va iste’dodiga - to‘liq ega edilar. Hirot atrofidagi hududlarda - Aymoqi qabilasidan to Ming o‘zbek urug‘igacha, taxminan o‘ttiz ming nafar qo‘shin eshonga itoat etuvchi va bo‘ysunuvchi edi. Bundan tashqari, yana ikki ming nafar so‘fiy ham o‘sha davrda Hirotda edi. O‘sha paytda Temurshohning o‘g‘li shahzoda Firuz saltanat va hukumatni boshqarar edi. Biroq shunga qaramay, barcha amirlar Firuzga ilm, fazl va rioya jihatidan hurmat bilan qarab, unga itoat va xizmat qilishga moyil bo‘lsalar-da, mamlakat ishlarining maslahat va mashvaratini Eshonga topshirar edilar. Har gal biror muhim yoki ayniqsa, shar’iy masala yuzaga kelib, uning yechimi zarur bo‘lganida, ular Eshonga murojaat qilar edilar. Chunki Eshon ibodatga shu qadar berilgan edilarki, go‘yo Alloh taolo ularga azaliy qudrat, Qur’on oyatlari tafsiri va Nabaviy hadislarni

(cc) BY

o‘rganishda mukammal ilm va mahorat bergan edi. Eshonda ilmi laduniy(Alloh tomonidan berilgan ilohiy bilim) hosil bo‘lgan, deb qaralar edi[5;21-a,b].

Ushbu parchadan ko‘rinib turibdiki, Hoziqning otasi nafaqat diniy bilimlarning peshvosi va komili, balki jangovor va harb ishlarida ham mukammal bilimga ega bo‘lgan, hatto lashkariy - boshliq lavozimini egallab, 30 mingdan ortiq qo‘shinga boshchilik ham qilgan. Bundan tashqari, uning saroydagi hurmat-e’tibori shu darajada yuqori bo‘lganki, amaldor va ulamolar shahzoda Feruzni hurmat qilib, unga itoat etishsa-da, muhim bir shar’iy masala kelganda doim Islomshayxga murojaat qilishgan va unga ishonishgan.

Shunday buyuk shaxs dunyoga kelishini, Hirot mashoyixlaridan bo‘lgan Shayx Iloniy hazratlari Islomshayxning tavallud topishlaridan avval, shayxning jazbasi orqali xabar berib, shunday deganlar: “Ellik yildan keyin Turon viloyatidan Hirotga haqiqiy orif, go‘zal siyratli va yuksak fazilatli bir zot keladi. U xalqni ma’rifatga yetaklaydi, to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, irshod, hayrat va hidoyat bilan ko‘plab kishilarni yo‘lga soladi. Juda ko‘p odamlar uning sharif suhbatidan foyda va uyg‘onish topadilar”[5;22-a].

Shuningdek, Islomshayx hazratlari o‘rni kelganda she’rlar yozib, g‘azallarini o‘qib berganlar: “Shayx bu haqda bir g‘azal ham aytib, quyidagi baytlarni keltirganlar: “Ey dil, kuchli(baquvvat) bo‘l, chunki (sen tomon)bir kishi kelmoqda,

Allohga hamd bo‘lsinki, faryodingga quloq soluvchi, najotkor kelmoqda. Ushbu g‘azal oxirigacha Hazrati Eshon devonida yozilgan holda mavjuddir”[5;22-a].

Demak, otalari nafaqat pir, valiy va avliyo shaxs, balki shoir ham bo‘lganlarki, hatto devonlari mavjudligi ta’kidlangan.



Mazmuni: “Ularning suhbatlarida buyuk olimlar va fazilatli kishilar juda ko‘p qatnashar edilar. Ba’zan Qur’on tafsiri va hadislarni mutolaa qilish bilan mashg‘ul bo‘lar, ba’zan esa tasavvuf kitoblarini, jumladan, Mavlono Rumiyning «Masnaviy»si va boshqa asarlarni o‘qib, ulardan foydalanar edilar”[5;8-a].

Ushbu parchadan ham ko‘rinadiki, shayxning asosiy vaqtlari tafsir, hadis va tasavvufiy kitoblar sharhi bilan mashg‘ullikda o‘tsa, ammo ba’zan boshqa sohalarda ham olim-u fozillar bilan bahslasha olganlar.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda shuni aytish mumkinki, Islomshayx hazratlari juda katta mol-mulkka ega bo‘lib, shu mulklardan keladigan daromadni doimo oddiy xalq uchun sarf aylab, kambag‘al-bechoralarning ahvolidan xabardor bo‘lganlar[5;6-a].

(cc) BY

Shuningdek, risolada Hoziqning qayd etishicha, Hazratning oshxonasida bir mo‘jizakor qozon bor bo‘lib, agar undan o‘n ming faqir ovqat yesa ham, barchasiga yetar va to‘ydirar edi. Holbuki, u qozon unchalik katta emas edi. Shu bilan birga, Hazratning oshxonasida har kuni o‘n besh yoki ba’zan o‘n sakkizta qo‘y so‘yilib, taom tayyorlanar va qambag‘al, beva-bechoralarga tarqatilar edi[5;17-b].

Islomshayx hazratlari o‘z davrining ulug‘ pirlari va komil insonlaridan bo‘lib, ilm-ma’rifat, taqvo va ruhiy kamolotda yuksak maqomga erishgan edilar. Ularning huzuriga turli yurtlardan ilm va hidoyat istab kelgan muridlar ko‘p bo‘lar, suhbatlaridan bahramand bo‘lgan kishilar qalbida ixlos va e’tiqod kuchayar edi. Shayxning karomatlari haqida xalq orasida ko‘plab hikoyatlar tarqalgan bo‘lib, ularning juda ko‘pchiligiga Hoziq shaxsan guvoh bo‘lgan yoki ishtirok etgan edi.

Risolada shayxning turli vaziyat va sababga ko‘ra amalga oshirgan karomatlarini o‘qir ekanmiz, haqiqatdan ham ilohiy kuchga ega inson ekanliklarining shohidi bo‘lamiz. Quyida shu karomatlardan ba’zilarini sharhlab o‘tamiz:

Naql qilishlaricha, Ahmad Oxundzoda (XVIII-XIX asrda yashagan mashhur xattot, olim va kitobat ustasi) o‘sha zamonda juda mashhur bo‘lib, obro‘- e’tibor va ulug‘vorlik jihatdan o‘zini ustun sanar edi. Hazrati Islomshayx bir kuni unga maktub yozib, ixlos va e’tiqod bildirdilar. Ahmad Oxundzoda esa nihoyatda takabburlik bilan, “Man eshonning muridi emasmanku, nimaga bunday xat yoziladi?”, deb pasanda qiladi. “Bu gap eshonning qulog‘iga yetib borgach, dedilarki, bir haftadan so‘ng murid bo‘lib keladi. Xullas, bir hafta o‘tgach, uni xiyonatda aybladilar va shahzoda uni o‘ldirishga qasd qildi. U qochib, eshon dargohiga panoh izlab keldi”[5;27-a].

“Voqeoti Islomiya” risolasida naql qilinishicha, Hazratning xalifalari juda ko‘p bo‘lgan. Biroq ular orasidan to‘rt nafarini alohida ixtiyor bilan tanlab va siylab, umumiy irshod (odamlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash) vazifasiga tayinlagan ekanlar.



Mazmuni: “Ularning jahonpanoh, shafqatli va saxovatli kishilardan biri mashhur xalifa Atoulloh edilar. U zot Farg‘ona viloyatida istiqomat qilganlar va bir necha joylarda maskan va qarorgohlariga ega bo‘lganlar. Jumladan, Marg‘ilon va Andijonda ham u zotning ko‘plab mulklari va ekin yerlari mavjud edi. Mazkur xalifaning saxovati va oliyhimmatligi hammaga a’yon edi”[5;8-b].

Shuningdek, shayxning keyingi xalifalari Mavlono Ne’matulloh bo‘lib, Xo‘jakant qishlog‘ida istiqomat qilib, hazrat vafot etganlaridan keyin tariqat silsilasining davomchisi va u zotning o‘rinbosari bo‘lganlar. “Eshonning saxovati nihoyatda ulug‘ bo‘lgan, so‘fiylik ilmi va ma’rifatida kamol darajasiga yetgan edilar. Mavlono Rumiy

(cc) BY

baytlarining aksariyati va u zotning zikrida yodda saqlangan. Shuningdek, u zot Hazrati Eshon bilan quda-qarindoshlik (kuyovlik) jihatidan ham aloqador edilar”[5;10-a].

Ushbu parchadan va boshqa o‘rinlardagi qaydlardan aniqlandiki, Islomshayx hazratlarining bir necha farzandlari bo‘lgan. Hoziqning aka-uka va singillari bo‘lganligi shu risolada ham ko‘p ta’kidlanadi. Shayxning qizlari yuqorida ta’kidlangan yaqin muridlari, xalifalariga turmushga berilgan. Bir kuyovlari mavlono Ne’matulloh bo‘lsa, yana biri xalifa Mir Hoshim Ansoriy edi [5;12-b].

Xulosa qilib aytganda, Hoziq otasining obro‘ va mavqeyi shu darajada kuchli ediki, o‘sha davrda u zotning huzuriga kelib, ixlos va irodat bilan xizmatlariga bog‘lanmagan biror kishi deyarli yo‘q edi. Risolada Hoziq tili bilan aytganda, “Garchi Hirot ahli o‘z mazhab va yo‘llariga nihoyatda mahkam bog‘langan bo‘lsalar ham, shayxning viloyat quvvati va suhbatining ma’naviy jozibasi shu darajada kuchli ediki, uni faqat oddiy murid yoki muxlisning ta’siri bilan izohlab bo‘lmas edi”[5;8-a].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳодизода Р., Каримов У., Саъдиев С. Адабиёти тоҷик (асрҳои XVI-XIX ва ибтидои асри XX). - Душанбе: Маориф, 1988. - 416 с.

2. Rafiddinov S. Ogahiy va Hoziq ijodiy merosi. - Toshkent: Oliy kitob, 2026. - 288 b.

3. Shodiyev E. Hoziq haqida yangi ma’lumotlar // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1972. - № 1. -68-73-betlar.

4. Shodiyev E. Hoziq haqida yangi ma’lumotlar // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1974. - № 1. -85-88-betlar.

5. Voqeoti Islomiya. Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo‘lyozma, Asosiy fond, inventar № 12240. 30 varoq.

6. Voqeoti Islomiya. Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo‘lyozma, Hamid Sulaymon fondi, inventar № 3021-II. 40 varoq.

7. Diss.natlib.uz.

8. Google Scholar.

9. Nodir.natlib.uz.

10. Ziyouz.com.

(cc) BY